

AMIR TEMURNING HARBIY JANG SANATI

Alijonov Baxtiyor Xoshimovich**FarDU Harbiy Talim Fakultiti Oqituvchisi****Yusupov Uchqunbek Uygun Ugli****FarDU Harbiy Talim Fakultiti Talabasi****Raxmonov Hasan Azamat Ugli****FarDU Harbiy Talim Fakultiti Talabasi****Tojiyev Oybek Baxtiyor Ugli****FarDU Harbiy Talim Fakultiti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning harbiy san'atdagi faoliyati, uning strategik va taktik mahorati, qo'shin tuzilmasi hamda jang olib borish uslublari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Amir Temur XIV asrda kuchli va markazlashgan davlat barpo etib, Sharq va G'arb o'rtasidagi siyosiy muvozanatni belgilashda muhim rol o'ynagan. U yaratgan harbiy tizim, qo'shinlarning qat'iy intizomi, janglarda qo'llagan harbiy hiylalar va rejalashtirish san'ati zamonaviy harbiy ilmlar rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Maqolada shuningdek, Temuriylar davrida harbiy texnika, boshqaruv tizimi va harbiy yurishlarning tarixiy ahamiyati yoritilib, Amir Temurning harbiy merosi bugungi harbiy strategiya va san'at bilan bog'lanadi.

Kalit Sozi: Amir Temur, harbiy san'at, strategiya, taktika, qo'shin tuzilmasi, harbiy yurishlar, Temuriylar davlati.

Sohibqiron bobomiz Amir Temurning jang san'ati, harbiy salohiyati bugungi kungacha insoniyatni hayratga solib keladi. Mardlik, jasorat, or-nomus tuyg'ularini avlodlarga meros qoldirgan bobomizning hayratomuz kuch-qudrati siri nimada? Kuchga erishish uchun kuch beradigan ilmni bilish kerak. U qanday ilm o'zi? Amir Temur lashkarida shunday ilm bo'lganmi?

Quyida folklorshunos olim Sh.Turdimovning bu boradagi tadqiqotini o'qiysiz. Har qanday saltanat aql, adolat, kuch poydevorida qad tiklaydi. Tangri saltanat

tegirmonini yurgizishni hamma xalqning peshonasiga birdek bitgan emas. Tarix bunga guvoh. Ota-bobolarimiz suv boshiga ko‘p bor kelib-ketdilar. Charx aylanib, avlodlarga ham navbat yetdi... O‘tganlarning izini yodlamay, oqqan daryo o‘zanlardan suvni qayta oqizmay, kuch-qudratni tiklash og‘ir... Yana aytadilarki, “eskini esalamoq savob”. Eskini birgina eskiligi uchun yodlansa, eskiligicha qoladi. Meros qayta tiklanib, avlod “qon”iga payvand qilinsa, yangilanadi. Chinakkam otameros mulkka aylanadi. Biz bu o‘rinda saltanat poydevorining muhim tayanchi – kuch va uning aql-zakovat, tadbirkorlik bilan uyg‘unligi xususida so‘z yuritmoqchimiz. Saltanat kuchi, avvalo, shijoatli, jasur askarlarda namoyon bo‘ladi. Sohibqiron Amir Temur jahongirlikka kirishganda yodida mahkam saqlagan to‘rt narsa qatorida lashkarning o‘zagini tashkil etgan uch yuz o‘n uch xos askarini alohida ta’kidlab aytadi: “...uch yuz o‘n uch asl zotli, shijoatli va aql-farosatli er yigitlarni atrofimga birlashtirdim. Birlik ittifoqda shunday ediki, barilari go‘yo bir tandek edilar. Barchalarining maqsadlari, ra‘ylari, so‘zlari va ishlari bitta edi. Bir ishni qilaylik deb qaror qilsalar, tugatmagunlaricha undan qo‘l uzmas edilar”. Amir Temur bul xos yigitlarining tengsiz jasoratlari haqida o‘z “Tuzug”ida ko‘p bor to‘xtalib, ular saralaridan saralangan “... aql-xush egalari, bazmu razm sherlari, mahoratli sarkarda, lashkar to‘pini buzib, uni mag‘lub etuvchi kishilar edi”, deb ta’kidlaydi. Sohibqiron buyrug‘i bilan ularning yuztasi – o‘nboshi, yuztasi – yuzboshi, yuztasi mingboshi, yana o‘n ikkisi amir, biri amir ul-umaro etib tayinlangan. Amir Temur hamisha shijoatli kishilarni o‘ziga do‘st tutdi, ardoqladi. Yaxshilariga – yaxshilik qildi, yomonlarini o‘z yomonliklariga topshirdi. Tarixchilar Amir Temurning ozgina askar bilan dushmanlarining ko‘p sonli lashkarini yengib, qal’alarni olganini qator misollarda yozib qoldirganlar. Sohibqiron askarlaridagi hayratomuz kuch-qudratning siri nimada? Bu sir, avvalo, sarkardaning tadbirkorligi, qolaversa, askarlarning kuchliligi va ishonchlarida edi. Sarboz kuchi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Kuch yig‘ilsa, ishonch tug‘iladi. Ishonch g‘alabani ta’minlaydi. Kuchga erishish uchun kuch beradigan ilmni bilish kerak. U qanday ilm o‘zi? Amir Temur lashkarida shunday ilm bo‘lganmi? Yo‘q, deb aytishga tarix, bobolarimiz ko‘rsatgan jasoratlar, qolaversa,

Amir Temurning o'z hayotida kechirgan suronli voqealar imkon bermaydi. Sohibqiron shonli yurishlari avvalida kechgan Alibek tutqinidan ozod bo'lgan paytlarini eslab aytadi: "Kuchli va chaqqon bilaklarim ish berib, soqchilardan birining qo'lidan qilichini tortib oldim-da, ularga hamla qilgan edim, barisi qochib qoldi". Qurolsiz tutqun hushyor turgan soqchi qilichini tortib olib, butun to'pni bir hamlada tum-taraqay qilishi uchun qanchalik mohir jangchi bo'lishi kerak? Qo'llar o'z-o'zidan chaqqon va kuchli bo'lmaydi. Kuchni kuch ilmi paydo qiladi, mahoratga payvasta etadi. Saltanatlar kuch ilmi sohibi bo'lmish lashkarli sardorgagina nasib etgan. Amir Temur saltanat tuzgan ekan, lashkarining kuchu qudratini do'stu raqib tan olgan ekan, o'zi va lashkari kuch ilmidan xabardor bo'lishi shart edi. Lekin aniq yozma ma'lumotlar yo'qligi bizni ikkilantiradi. Ayni paytda kuch ilmini yozish, begonalarga o'rgatish yosoq bo'lganligini, ota o'g'liga, ustoz shogirdigagina bor ilmini meros qoldirish an'anasiga qat'iy amal qilinganligini yodlasak, qo'lyozma manba axtarishdan ko'ra xalq xotirasi va qon yodi (genetik xotira) ko'proq ma'lumot berishi mumkinligiga amin bo'lamiz (o'zbek kurashchilari va bokschilari, jang san'ati vakillarining xalqaro g'alabalarining bir asosi qon yodida turibdi). Aytadilar: "Bor yitmas, yo'qni yo'ndirib bo'lmas!". Qadim turkiy jang san'ati "Ming askar" ustasi – Masharip (Mashrab) Jumaniyozov – usta Madju bilan suhbatlashib, xalqimizda butun borliq mohiyati bilan uyg'un, falsafiy mifologik dunyoqarashlar asosida shakllangan, qat'iy tizimga ega – bir askarga ming askar kuchu qudratini beruvchi jang ilmi bo'lganligini bildik. Usta Madjuning ota-bobolari – "Juma uchar"lar avlodi bu ilm sirlarini avloddan-avlodga o'tkazib, bu kungacha saqlab kelishgan. Usta Madju aytadi: "Jang san'ati uch tumor (halqa), o'ttiz uch yo'l, bir butun tizimdan iborat. Har bir yo'l ichida o'z usullari bor. Hisoblab chiqilsa, roppa-rosa ming usul hosil bo'ladi. Bir kishi shu ming usulni o'rgansa, "Ming askar"ga teng keluvchi, har qanday saltanatga tayanch yengilmas kuchga aylanadi". Ming askar maqomi sohibi bo'ladi. Aqlga bo'ysunmagan dali kuch buzg'unchilik keltirishi mumkin. Ota-bobolarimiz bu xatarli ofat zararini yaxshi anglab yetganlar. Shu sababli tan va ruh tarbiyasini uyg'unlikda, vobastalikda olib borishgan.

“Ming askar” jang san’ati usullarining birinchisi “Tovus tongi” deb nomlanishi bejiz emas. Odatda kecha-kunduz fikri-yodi jang bilan bo’lgan askarning ko’zi qonga to’lib, tap tortmay haqu nohaqni yanchib, yo’q qilib ketishi hech gap emas. “Tovus tongi” mashqi askarni sokinlashtiradi, xayollarini tinitadi. Ko’nglida butun borliq bilan birlik hissini uyg’otadi. Askar borliq bilan uyg’unlashadi. Bir so’z bilan aytilsa, har bir askar jannat qushi – tovusga evriladi. Navbatdagi mashqlar shu sokin asosga qurilib, askar mashqlar zinasidan bir-bir ko’tarilib borgan, o’ttiz ikkinchi mashq “Ajdarho qahri”ga yetganda yengilmas qudrat kasb etgan. So’ngi mashq “Toshbaqa – temir qalqon”ni egallagan askar tani va ruhida yig’ilgan kuchni jamlab, bir qal’a qurib, har bir qadamini bilib bosguvchi, raqibiga zarracha ustunlik imkonini qoldirmaydigan, sokin, dono alp sifatida tungi oromga ketgan. Sohibqiron Amir Temur davriga kelib “Ming askar” jang san’ati ommaviy tus olgan. Amir Temir o’nboshi, yuzboshi, mingboshi, amirlarni tayinlashda nomzodlarning qancha jang usulini bilishiga ham alohida e’tibor bergan. “Ming askar” jang usulini mukammal bilib, jasorat ko’rsatgan jangchilar maxsus o’n musht uzunligida, qalinligi otning ko’zidek keluvchi, og’irligi besh kilo chiqadigan oltin qurol bilan taqdirlangan. Bu qurol bilan har qanday hamladan himoyalaniib, har qanday jangchini mag’lub etish mumkin bo’lgan. Chunki ming usul sohibida bu oltin yaroq sehrli qudrat kasb etgan. Unga jangchining nasli, tug’ilgan joyi, ko’rsatgan jasoratlari yozib qo’yilgan. Oltin – qudrat beruvchi ma’dan. Oltin qurol jangchini tovusning holatiga solgan. Tovusning jahli chiqmaydi. Shuncha zeb-ziynati, go’zalligi bo’lsa-da, sekin yuradi. Jangchi ham og’ir-bosiq bo’lsa, vaziyatning xojasiga aylanadi. Oltin qurolning sehrli kuchi ham shunda. “Ming askar” jang san’ati mashqlarini ommaviy o’tkazish, urushda qo’llash tartibi ham bu san’atga asos qilib olingan tovus tabiati, hatti-harakatlariga uyg’un keladi. E’tibor berilsa: tovusning patlarini yoyib-yig’ib o’z go’zalligini namoyish etishi, boshini sarak-sarak etib atrofni sinchiklab kuzatishi ming askar jangchilarining sardorlari yetakchiligida dushman to’piga hujum qilishlari, jang olib borishlariga ulgu qilib olingan. Usta Madju tez-tez qaytaruvchi yana bir gap bor: “Qadim turkiy jang san’atining “ming askar” deb atalishiga sabab unda ming jang usulining borligigina emas, bu bir askarning ming

usulni egallab, ming askarga aylana olishiga ishoradir. Bir usulni bilganga askar deganlar. O‘n usulni bilgan – o‘n askar, yuz usulni bilgan – yuz askar, ming usulni bilgan esa ming askar atalgan”. “Ming askar” jang usullari faqat urushish yo‘l-yo‘rig‘i emas, ayni damda mustahkam sog‘lik, jismoniy-ruhiy quvvat mashqlaridir. Bu mashqlarni muntazam ravishda bajargan kishi sog‘lom bo‘lgan, umriga umr qo‘shilgan. Qoni tozarib, ruhi kamolot bosqichlariga ko‘tarilgan. Shunday ekan, “ming askar” jang san‘ati usullarini to‘liq qayta tiklab, ommalashtirish bugungi kun uchun, xalq va avlodlar salomatligi, ruhiy yuksalishi uchun ham zarurdir. O‘zbekiston askarlarini “Ming askar” maqomida ko‘raylik, dunyo shunday tanisin! **Temuriylar harbiy san‘ati** — jahon harbiy san‘ati rivojiga [Amir Temur](#) va uning avlodlari, xususan, [Bobur](#) qo‘shgan salmoqli hissa. Bu mutaxassislar, sarkardalar tomonidan shartli ravishda e‘tirof etilgan. Buyuk lashkarboshi va novator harbiy tashkilotchi hisoblanmish Sohibqiron intizomli armiya tuzishga, jang paytida qo‘shin qismlarini oqilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo‘llashga, mavjud to‘siq va g‘ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, qo‘shindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. Amir Temur va [temuriylar](#) armiyasi chorvadorlar qatori kosibchilik, hunar mandchilik, dehqonchilik bilan mashg‘ul o‘troq aholidan ham askar to‘plagan. Qo‘shinda harbiy kuchlarning asosini tashkil qilgan otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalar ham xizmat qilgan. Sohibqiron Sharqda birinchilardan bo‘lib armiyaga o‘t sochar qurol — to‘p(ra’d)ni olib kirgan. Temuriylar davrida bu qurolning boshqa turlari (zarbzan, farangi, qozon va hokazo) keng yoyildi. Tog‘li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo‘linmalar tashkil qilingan. Amir Temur jahon harbiy ish tarixida birinchilardan bo‘lib qo‘shinni jang maydonida an’anaviy 5 bo‘lakdan farqli ravishda 7 qo‘lga bo‘lib joylashtirish tartibini joriy etgan([yasol](#)). Bu yangilik keyinchalik To‘xtamish, Shayboniyxon singari sarkardalar tomonidan o‘zlashtirilgan. Ibn Arabshohning guvoxlik berishicha, Sohibqiron qo‘shinida ayollardan iborat bo‘linmalar bo‘lib, ular erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalari ko‘rsatgan. Temuriylar armiyasi son jihatdan aniq tashkil

etilgan, uning jangovar tartibi takomillashib borgan, o'zvaqtining ilg'or qurol va texnikasi bilan ta'minlangan, qismlar bir-biridan kiyimbosh, bayroq va tug'lari bilan farqlangan. Bunday farkanish jangda qo'shinni boshqarishda qo'l kelgan. Dushman mudofaasini turli usullar bilan barbod etish, raqibning yirik shaharlariga qo'qqisdan zarba berish, qal'a, qo'rg'on va hisorlarning uzoq muddat muhosara qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng ko'lamda qurshab olib, qishloq, shahar, tuman, viloyatlarni birinketin zabt etish, dushmanni batamom yakson etgungacha ta'qib qilish, taslim bo'lgan mamlakatlarni boshqarishga ishonchli kishilarni tayinlash singari amaliyotlar Amir Temur va temuriylarga ko'plab zafarlar olib kelgan. Taktika jihatdan Amir Temur armiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Razvedka a'lo darajada yo'lga qo'yilgan, qismlarning janggohda yoki jangovar safda talab darajasida harakat qilishi uchun zarur tadbir va choralar ishlab chiqilgan, ularni jang paytida tezkorlik bilan boshqarishga alohida diqqat qaratilgan. O'nlikboshi, yuzboshi, mingboshi, tumanboshi va amir qo'mondonlarini tanlash masalasiga oliy bosh qo'mondon mas'ul hisoblangan. Sohibqironning harbiy san'at rivojiga qo'shgan ulkan xizmatlaridan yana biri — jang vaqtida qo'shin qanotlarini dushman hujumidan muhofaza qilish va, o'z navbatida, g'anim kuchlarini yon tomondan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism — qunbulning joriy etilishi bo'lgan. Bunday yangi harbiy qism Aleksandr, Gannibal, Chingizxon, Lyudovik XIV, Buyuk Fridrix kabi atoqli sarkardalar qo'shinida bo'lmagan. Shayboniyxon armiyasida bunday kiyem mavjud edi va u to'lyuma atamasi bilan nomlangan. Qo'shin to'plash haqida maxsus buyruq (tunqol) elon qilingach, hukmdor tomonidan tuzilgan ro'yxatga binoan jangchilar otulovi, qurolyarog'i, oziq-ovqati, yemxashagi bilan to'planish yeriga yetib kelgan. Har bir askarga bitta yoy, 30 ta o'q, bir sadoq, bitta qalqon, bitta qo'shimcha ot, yarim man og'irligida arqon, bir dona pishik, teri xalta va bitga qozon ajratilgan. Har 10 jangchi bir chodir, 2 belkurak, bir kerki, bitta o'roq, bir arra, bir tesha, bitta bolta va 100 dona nina olib yurishi shart hisoblangan. Sara jangchilarning har 5 tasi bitta chodirga joylashgan. O'nbegining alohida chodiri va 5 ta qo'shimcha oti bo'lgan. Yuzbegiga ham alohida chodir va 10 ta qo'shimcha ot berilgan. Mingbegi chodirdan

tashqari soyabon bilan ham ta'minlangan. Sohibqiron armiyasining turli bo'linma va qismlariga 313 bek boshchilik qilgan. Ulardan dastlabki 100 tasi o'nbegilik, ikkinchi 100 tasi yuzbegilik, uchinchi 100 tasi mingbegilik lavozimlarini egallagan. Diviziya — tumanlarga Amir Temurning farzandlari, nabiralari va nomdor lashkarboshilar rahbarlik qilgan. Yetarli miqdorda qo'shin to'plangach, u ko'rikdan o'tkazilgan. Temuriylar davrida yurish yoki jangdan oldin lashkarni ko'rikdan o'tkazib, uning jangovar ruhi va holatini aniklash izchillikka aylangan. Qushinning jangovar holatini nazardan o'tkazish imtihon qilish usuli sifatida e'tirof etilgan ovgarta (ov uyushtirish)dan unumli foydalanilgan. Temuriylar harbiy yurishlarga ko'proq kuklam, yoz va kuz mavsumlarida o'tlanishni ma'qul bilganlar. Safar qoidasiga ko'ra, har bir sarkarda o'z darajasi va lavozimiga qarab qism va bo'linmalari bilan yasol — jangovar tartibda harakat qilgan. Yasolni buzgan shaxs qattiq jazolangan. Qo'shin janggohga tushganda lashkargoh atrofi aravalar bilan to'silgan, xandaqdar bilan ihota qilingan, soqchi bo'linmalar tomonidan qo'riqlab turilgan. Yurish yoki jang paytida boshboshdoqlik, parokandalikni oldini olish maqsadida har bir bo'linma, guruh, kismning o'z paroli — o'ron belgilangan. Armiya safar chog'ida quyidagi jangovar tartibda harakat qilgan: Bosh kuchlardan ancha oldinda qaravul (avanpost), undan keyin mang'lay (hiravul)(avangard), barang'ar, juvang'ar, qo'l(markaz), chag'davul (aryergard) yurgan. Qo'shin ketidan o'g'ruq (oboz) peshmapesh kelgan. Oliy bosh qo'mondon jang maydonini tanlashga alohida diqqat qaratgan. Janggohning tekis, keng va qo'shin qismlarini joylashtirishga qulay bo'lishi talab qilingan. Jang maydonining suvga yaqin bo'lishi hamda jang vaqtida kuyosh nurining askarlar ko'ziga tushmasligi maqsadga molik hisoblangan. Yirik muhorabalar paytida dastasi uchiga yarim oy shakli qadalgan jangovar bayroq va tug'lar bilan bezatilgan oliy qo'mondon borgohi balandlikka o'rnatilgan. U yerdan jangning borishi kuzatilib turilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temurning 12 ming kishilik qo'shini jangga mana bunday tartibda kirgan. Dushman bilan dastlabki to'qnashuvni ayg'oqchilik bilan mashg'ul bo'lgan qaravul boshlab bergan. Shundan so'ng o'ng va chap qanot ilg'or qismlari — barang'ar xiravuli va juvang'ar hiravuli madadida asosiy ilg'or qism —

mang'lay jangga kirgan. Mang'lay ortidan barang'ar hamda juvang'arning qolgan 2 bo'lagi — chapavul va shag'avul ketma-ket harakatga kelgan. Ushbu kuchlar dushmani Mag'lub etishga kifoya qilmasa, bosh qo'mondon (amir ulumaro) boshchiligidagi markaz (qo'l)(g'o'l) hal qiluvchi hujumga tashlangan: vdravul, qaravul, manglay (xuravul). Sohibqiron armiyasi qatnashgan ulkan janglarning taktik borish manzarasi quyidagicha bo'lgan: qo'shin markazi 40 bo'luk — polika taqsimlangan va Oliy bosh qo'mondonga itoat qilgan. Ushbu bo'luklarning sara jangchilardan tashkil topgan 12 bo'luki safning 1qatorida, qolgan 28 bo'luki 2 va 3qatorlarda joylashgan. Qirq bo'lukning o'ng tarafi oldida amirzodalar qismlari, so'l tarafi oldida qarindoshlar va itshfoqchilar qismlari saf tortgan. 2qatorning barang'arida 6 bo'luk o'z ilg'ori — hiravul bilan o'rin egallagan. Ayni shu miqsordagi bo'luk va hiravulga juvanger ham ega bo'lgan. 2-qator barang'ari va juvang'ari oldida yuqoridagi tartibda 1qator qismlari joylashgan. Uning oldida bosh ilg'or — mang'lay (yoki hiravuli buzurg) harakatda bo'lgan. Yengil suvoriylardan iborat 2 bo'luk armiyani qo'qqisidan bo'ladigan hamladan muhofaza qilish, dushman kuchlari harakatini kuzatish bilan band bo'lgan. Bobur qo'shini dastlab an'anaviy 5 qismdan tashkil etilgan holda harakat qilgan. Keyinchalik bu jangovar tartibga jiddiy f o'zgartirishlar kiritilgan, markaz (g'o'l) kuchaytiril3 gan. Markaz o'ng qo'l baraig'yar chapavul va so'l qo'lga taqsimlangan hamda o'ng yon va so'l yondan iborat xossa tobin oldida qator vazifasida harakat qilgan. Xossa tobin o'ng va so'ldan tarkib topgan, 3 qator vazifasini o'tagan shaxsiy gvardiya bo'y oldidan joy olgan. Saralangan askarlardan tuzilgan xossa tobin markaz (g'o'l)dan kuchsizroq, bo'ydan esa kuchliroq hisoblangan. Temuriylarga ko'plab zafarlar keltirgan bu harbiy tartib keyingi davrlarda Shayboniylar, Ashtarxoniylar va O'rta Osiyo xonliklari (Buxoro, Xiva, Ko'qon) davrida ancha o'zgarishlarga duch kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Boboyev H.B Amir Temur va temuriylar sahanati.-Toshkent: Kamalak, 1996.-124b

2. Styosty va huquqby ta'limotlar tarix/Boboyev HB.. Vohidov H.V. Dodaboyev Y.T, Vohidyo D.-Toshken:#DYU1,2003.-205 6
3. Mamatov X.T. Temur tuzuktarida davlar va huqug masalalarl: Yurld. fanlari nOmzodi...dis. avtoref. Toshkent.2002.- 24b.
4. MamatoV XT. Anir Temur tuzuklarida davat va hugug masalalari Monografiy. (hanmualiakdo).-Toshkent: Yangi asr avod,2001-118 6.
5. To'laganov A.A. Rol imsto Amira Temura v razvitui uzbekskov gosudorstvennosti (no osnove Ulojeniy Temura) Avtoref diss. kand. vurid. nauk. Toshkent:1996.-245
6. Temur tuzuklari. /BAhmedov rahriri ostida.Toshkent GGulom nomidag Adabiyor va san'ot noshriyai,1991.144b